

MUDOFAA-SANOAT KOMPLEKSINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

**Isamatov Ravshan Sunnatovich**

*Chirchiq oly tank qo'mondonlik muhandislik bilim yurti*

*Fakultet (malaka oshirish) katta o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** *Hech kimga sir emaski, mamlakat milliy xavfsizligi - davlat va jamiyatning asosiy ehtiyoji hisoblanib, u davlatning siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy-ma'rify sohalarda faoliyat yuritishida muhim o'rinni egallaydi.*

Jahon tajribasidan ma'lumki, rivojlangan mudofaa sanoati innovatsion va yuqori texnologiyalarga asoslangan iqtisodiyotning eng muhim tarkibiy qismlaridan hisoblanib, davlatning milliy xavfsizligini ta'minlashda katta ahamiyatga ega.

Har qanday davlatning milliy xavfsizligini ta'minlashning eng muhim vositasi sifatida uning qurolli kuchlari hisoblanadi, shu asnoda, mudofaa-sanoat kompleksining ahamiyati ham katta o'rinni egallaydi.

Mudofaa-sanoat kompleksi - bu qurolli kuchlar ehtiyoji uchun harbiy va ikki xil maqsadda qo'llaniladigan mahsulotlar, moddiy-texnik vositalar va maxsus jihozlarni yaratadigan, ishlab chiqaradigan, mavjudlarini modernizatsiya qilish, sinaydigan ilmiytadqiqot institutlari, konstruktorlik texnologik byurolar, ishlab chiqarish korxonalarining to'plamiga aytildi.

Mudofaa-sanoat kompleksining o'ziga xos xususiyatlari:

mamlakat ilmiy-texnik taraqqiyotiga asos soladi;

mamlakatning milliy xavfsizligini ta'minlaydi (QK qurol-yarog', harbiy va maxsus texnika va boshqa moddiy texnik vositalarlarga bo'lgan talabini qondiradi);

qo'shimcha ish o'rirlari yaratadi;

davlatning iqtisodiy o'sishiga imkon beradi.

Shuning uchun ham jahoning ko'plab mamlakatlari o'z qurolli kuchlarining qurol-yarog', harbiy va maxsus texnikalarga, shuningdek, boshqa moddiy vositalarga bo'lgan talabini to'lik, qondirish maqsadida o'zlarining harbiy (mudofaa) sanoati kompleksini shakllantiradi, uning uzuksiz taraqqiy etishi ustida ish olib boradi.

Misol uchun, dunyoning yirik va rivojlangan mamlakatlari mudofaa sanoati kompleksi o'z davlatlarining iqtisodiy o'sishida muhim o'rinni egallaydi. Jahonda har yili qurolli kuchlarni moliyalashtirish uchun yuz milliardlab dollar sarflanmoqda. Qurol-yarog' va harbiy texnika eksport/importi 200 mlrd. AQSH dollarini tashkil etmoqda.

Zamonaviy mudofaa sanoati kompleksi iktisodiyotning bir qancha sohalarini o'z ichiga qamrab olgan, shularning eng asosiyllari:

ilmiy-tadqiqot tashkilotlari (vazifasi - ilmiy, nazariy tadqiqotlarni olib borish);

konstruktorlik byurolari (vazifasi - qurol-yarog'larning prototipini (tajriba namunalarini) yaratish);

sinov laboratoriyalari va poligonlar (tajriba namunalarida uchragan kamchiliklarni bartaraf etish va yangi ishlab chiqarilgan qurol-yarog'larni sinovdan o'tkazish);

ishlab chiqarish korxonalari (qurol-yarog'larni ommaviy ishlab chiqarish).

Yuqorida qayd etilganlardan kelib chiqib, shuningdek, jahon tajribasini inobatga olgan holda, mamlakat sanoat potensialini rivojlantirish, import o'rnini bosadigan, raqobatbardosh va eksportga yo'naltirilgan, harbiy va ikki xil maqsadda foydalanish mumkin bo'lgan mahsulotlarni ishlab chiqarish, qurolli kuchlarni zamonaviy qurol-asлаha, harbiy-texnika va boshqa moddiy texnik vositalar bilan ta'minlash tizimini kelajak istiqbolda takomillashtirish maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017- yil 20- noyabrdagi UP-5246- sonli Farmoniga muvofiq, mamlakatimizda birinchi marta O'zbekiston Respublikasi Mudofaa sanoati bo'yicha davlat qo'mitasi tashkil etildi hamda milliy mudofaa-sanoat kompleksini shakllantirish yo'lida birinchi qadam tashlandi.

Mamlakat mudofaa-sanoat kompleksining asosiy vazifasi - iqtisodiyotning to'laqonli mudofaa sektorini shakllantirish, yaqin kelajakda milliy armiyamizning ya'ni Qurolli Kuchlar va boshqa tegishli vazirlik va idoralarning zamonaviy qurol-asлаha, harbiy va maxsus texnikalarga bo'lgan talabini to'laligicha qondirish, shu bilan birga, mamlakatimizni jahoning yuqori texnologik mahsulotlar va xizmat ko'rsatish bozoriga olib chiqishni ta'minlashdan iborat.

Mudofaa sanoati bo'yicha davlat qo'mitasining vazifalari etib quyidagilar belgilaydi:

1. Davlat mudofaa buyurtmalarini shakllantirish va ularni amalga oshirishni ta'minlash, davlat va xo'jalik boshqaruv organlari, joylardagi ijro hokimiyyati organlari, mudofaa sanoati sohasidagi tashkilotlarning faoliyatini muvofiqlashtirish.

2. Qurol-yarog', harbiy va maxsus texnika, moddiy-texnik vositalarni yaratish, ishlab chiqarish, ta'mirlash, modernizatsiya qilish, hisobdan chiqarish va qayta ishlashga mo'ljallangan mudofaa ahamiyatiga ega tashkilot va ishlab chiqarish korxonalarining boshqaruv tizimini yaratish, shuningdek, yangi ishlab chiqarish korxonalarini tashkil etish, xorijiy hamkorlar bilan kooperatsiyani yo'lga qo'yish.

3. O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarini qurol-asлаha, harbiy texnika, harbiy-texnik va kiyim-kechak turlari, oziq-ovqat mahsulotlarining alohida turlari (quruq mevalar va individual ratsionlar) maxsus texnikalar, harbiy va ikki xil maqsadda foydalanish mumkin bo'lgan moddiy-texnik vositalar bilan qurollantirish va ta'minlash.

4. Harbiy-texnik sohada tashqi iqtisodiy faoliyat yuritish, ilg'or xorijiy sheriklar bilan harbiy-texnik sohada hamkorlikni olib borish, harbiy sanoatga chet el investitsiyalarini jalb etish, shuningdek, mudofaa- sanoat kompleksining eksport salohiyatini yuksaltirish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish.

5. Harbiy va ikki xil maqsadda foydalanish mumkin bo'lgan mahsulotlar, ehtiyoj qismlar, eng yangi material va xom ashyolarni yaratish, ishlab chiqarishga

yo'naltirilgan ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstrukturlik ishlarini tashkil etish va olib borish.

6. Harbiy va ikki xil maqsadda foydalanish mumkin bo'lgan mahsulotlarni yaratish, ishlab chiqarish, ta'mirlash, modernizatsiya qilish, unifikatsiya qilish, moslashtirish, hisobdan chiqarish va qayta ishlab chiqarish borasida mavjud meyoriy talablarga rioya etishni ta'minlash.

7. Mudofaa-sanoat kompleksi xodimlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishni tashkil etish.

Mudofaa sanoati bo'yicha davlat qo'mitasi oldiga qo'yilgan vazifalarning muvafaqqiyatli amalga oshirilishi yaqin keljakda quyidagi natijalarga erishishni ta'minlaydi:

qurolli kuchlarni butlash maqsadida yirik ilmiy-ishlab chiqarish tizimlarini yaratish va rivojlanadirish;

butlovchi jihozlarni mamlakatimiz korxonalarida ishlab chiqishni mahalliylashtirish orqali qurol-yarog', harbiy va maxsus texnikalarning zamonaviy va keljak istiqbolagi namunalarini va tizimlarini yaratish, ishlab chiqarish jarayoniga ustuvor texnologiyalarni joriy etish;

O'zbekiston Respublikasining strategik va muhim ahamiyatga ega qurol-yarog', harbiy va maxsus texnikalarni ishlab chiqarish bo'yicha texnologik mustaqillikka bosqichma-bosqich erishish, xorijiy mamlakatlardan qurol-asлаha, harbiy va maxsus texnika xarid qilishga qaramlilikni imkon darajada kamaytirish;

mudofaa sohasida fundamental va amaliy ilmiy tadqiqot ishlarini tashkil etish va takomillashtirish, qurolli kuchlarda mavjud qurol-asлаha, harbiy va maxsus texnika, texnik vositalar, o'k-dori, harbiy va ikki xil maqsadda foydalanish mumkin bo'lgan mahsulotlarni ishlab chiqarishga mo'ljallangan ilmiy-tadqiqot va tajriba konstrukturlik ishlarini tashkil etish, ularning tajribaviy namunalarini yaratish, sinovlar o'tkazish va ishlab chiqarishga joriy etish;

yakuniy natija sifatida esa - qurolli kuchlarning qurol-yarog', harbiy va maxsus texnika, harbiy-texnik vositalarga bo'lgan talabini qondirish, qo'shimcha ish o'rnlari yaratish, mamlakatimiz iqtisodiyotini diversifikasiya qilishga erishish, pirovard natijada mamlakatimiz milliy xavfsizligi va mudofaa salohiyatining talab darajasiga ko'tarilishga erishishni ko'rishimiz mumkin.

Jumladan, yuqoridaqgi vazifalar va rahbar hujjatlar talabidan kelib chiqib, O'zbekiston Respublikasi Mudofaa sanoati bo'yicha davlat qo'mitasi qurolli kuchlarning qurol-yarog', harbiy va maxsus texnika, harbiy-texnik vositalarga bo'lgan talab va ehtiyojlarini qondirish ustida faoliyat olib bormoqda, xususan:

1. Mudofaa sanoati korxonalari, muassasalari va tashkilotlarining samarali ishlashi uchun qulay shart-sharoitlar yaratish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni nazarda tutuvchi o'rtal muddatli dasturlarni amalga oshirish bo'yicha:

davlat mudofaa buyurtmalarini shakllantirish, davlat va xo'jalik boshqaruv organlari, joylardagi ijro hokimiyati organlari, mudofaa sanoati sohasidagi tashkilotlarning faoliyatini muvofiqlashtirish;

butlovchi jihozlarni mamlakatimiz korxonalarida ishlab chiqishni mahalliylashtirish, maxsus texnikalarning zamonaviy namunalarini yaratish maqsadida mamlakatimizda mavjud korxonalar, ishlab chiqarish muassasalari bilan yaqindan aloqa o'rnatish;

mudofaa-sanoat kompleksi uchun ishlovchi korxonalar ro'yxatini shakllantirish va ularni inventarizatsiya qilish.

2. Harbiy-texnikaviy yo'nalishdagi ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstrukturlik ishlarini shakllantirish hamda o'tkazishning davlat tizimini joriy etish bo'yicha:

mudofaa sohasida fundamental va amaliy ilmiy tadqiqot ishlarini tashkil etish maqsadida O'zbekiston Respublikasi fanlar akademiyasi, ilmiy-tadqiqot institutlar, oly o'quv yurtlari bilan yaqindan hamkorlik o'rnatish;

harbiy va ikki xil maqsadda foydalanish mumkin bo'lgan mahsulotlarning tajribaviy namunalarini yaratish, sinovlar o'tkazish va ishlab chiqarishga joriy etish maqsadida yurtimizda mavjud texnologik va konstrukturlik byurolar bilan hamkorlikda ishslash;

tegishli vazirlik va idoralar bilan hamkorlikda mamlakatimiz mudofaa qobiliyatini mustahkamlashga mo'ljallangan loyihalar ro'yxatini shakllantirish;

"Akadempribor" ilmiy-ishlab chiqarish birlashmasi bazasida o'quv trenajerlarini yaratish va mavjudlarini modernizatsiya qilish ustida ishlar olib borish;

mamlakatimiz ilmiy-texnik potensialidan samarali foydalangan holda (O'zbekiston Fanlar akademiyasi yadro fizika instituti, Chirchiq aviatsiya ta'mirlash zavodi imkoniyatlari asosida) kichik o'lchamli uchuvchisiz uchish apparatining tajriba namunasini yaratish.

3. Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalarni tashkil etish va manfaatdor xorijiy sheriklar bilan kooperatsiya aloqalarini yo'lga qo'yish bo'yicha ishlar bajarilmoqda:

harbiy sanoatga chet el investitsiyalarini jalb etish borasida Rossiya Federatsiyasi, Turkiya, Xitoy Xalq Respublikalari investitsiyalarini jalb etilishi ko'zda tutilmoxda.